



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI
STATISTIKA BOSHQARMASI

QORAQALPOG'ISTON
RESPUBLIKASINING
DEMOGRAFIK HOLATI

*2023- yil
yanvar-mart*



QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING DOIMIY AHOLISI

2023- yil 1-aprel holatiga, dastlabki ma’lumotlar

Qoraqalpog‘iston Respublikasida 2023- yil 1- aprel holatiga doimiy aholi soni **1 981,8** ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan **5,6** ming kishiga yoki **0,3 %** ga ko‘paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **968,7** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **48,9 %**), qishloq aholisi soni **1013,1** ming kishi (**51,1 %**)ni tashkil etdi.

Doimiy aholi soni

1 981,8 ming kishi

Tabiiy o‘shish

+7,4 ming kishi

Doimiy aholining yashash joyi bo‘yicha taqsimlanishi

Shahar



48,9%

Qishloq



51,1%

Aholining tabiiy harakati


	kishi		o‘shish, kamayish (+,-)	har 1000 kishiga nisbatan promille	
	2022 y.	2023 y.		2022 y.	2023 y.
Tug‘ilganlar	9 666	9 804	138	20,1	20,1
O‘lganlar	2 319	2 350	31	4,8	4,8
Tabiiy o‘shish	7 347	7 454	107	15,3	15,3
Nikohlar	4 149	3 647	-502	8,6	7,5
Ajralishlar	554	567	13	1,2	1,2

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha asosiy demografik ko‘rsatkichlar 2023- yil yanvar-mart



Yosh guruhlari bo‘yicha aholi soni


2023- yil 1- aprel holatiga



2023- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, respublika doimiy aholisi sonining **30,8 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, **58,9 %** i mehnatga layoqatli yoshdagilar va **10,3 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Yosh guruhlari va jinsi bo‘yicha aholi tarkibi


2023- yil 1- yanvar holatiga



2023- yil 1- yanvar holatiga Qoraqalpog‘iston Respublikasining doimiy aholisi tarkibini jinsi va yosh guruhlari bo‘yicha (65 yoshgacha bo‘lganlar 5 yillik yosh intervalida, 65 va undan yuqori yoshdagilar esa jamlangan holda) tahlil qilinganda, erkaklar tarkibida 4 yoshgacha bo‘lgan bolalar eng yuqori ko‘rsatkichni, ya‘ni **101,4 ming kishini** tashkil etgan. Erkaklar tarkibida eng kam aholi soni 60-64 yoshlilar hissasiga to‘g‘ri kelib **31,9 ming kishini** tashkil etdi. Shuningdek, ayollar tarkibida ham 0-4 yoshli bo‘lgan qizlar eng yuqori ko‘rsatkichni, ya‘ni **95,7 ming kishini** tashkil etgan bo‘lsa, eng kam ayollar soni 60-64 yoshlilar hissasiga to‘g‘ri kelgan, ya‘ni **36,9 ming kishini** tashkil etgan.

Tug‘ilishda kutilayotgan umr davomiyligi

2023- yil 1- yanvar holatiga




2023-yilning 1-yanvar holatiga Qoraqalpog‘iston Respublikasi aholisining kutilayotgan o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi **72,9** yoshni tashkil etgan. Erkaklar uchun **70,6** yoshga, ayollar uchun esa **75,1** yoshga teng. Shahar joylar uchun kutilayotgan o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi **70,5** yoshni, qishloq joylar uchun **75,4** yoshni tashkil etgan.

Doimiy aholi sonining taqsimlanishi


2023- yil 1- aprel holatiga

Erkaklar


Ayollar



995,3 ming kishi



986,5 ming kishi



Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha doimiy aholi soni

(1 aprel holatiga ming kishi)

	2022- yil	2023- yil	O‘sish sur‘ati, % da
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	1 955,6	1 981,8	101,3
Nukus sh. tumanlar:	330,6	335,5	101,5
Amudaryo	205,6	209,4	101,8
Beruniy	198,2	202,0	101,9
Bo‘zatov	21,8	21,9	100,5
Qorao‘zak	53,7	54,1	100,7
Kegeyli	73,8	74,3	100,7
Qo‘ng‘irot	133,2	134,9	101,3
Qonliko‘l	52,6	53,3	101,3
Mo‘ynoq	33,2	33,5	100,9
Nukus	52,1	53,1	101,9
Taxiatosh	75,7	76,4	100,9
Taxtako‘pir	40,7	38,9	95,6
To‘rtko‘l	221,8	225,6	101,7
Xo‘jayli	126,0	127,6	101,3
Chimboy	114,2	115,1	100,8
Shumanay	57,2	57,7	100,9
Ellikqal‘a	165,2	168,5	102,0

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha aholi zichligi


1-aprel holatiga, 1 kv.km.ga to‘g‘ri keladigan aholi soni, kishi

	aholi zichligi (01.04.2022)	aholi zichligi (01.04.2023)
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	11,7	11,9
Nukus sh.	1 496,2	1 518,4
<i>tumanlar:</i>		
Amudaryo	201,3	205,1
Beruniy	50,2	51,1
Bo‘zatov	10,7	10,7
Qorao‘zak	9,1	9,2
Kegeyli	80,2	80,8
Qo‘ng‘irot	1,8	1,8
Qonliko‘l	70,7	71,6
Mo‘ynoq	0,9	0,9
Nukus	55,2	56,3
Taxiatosh	426,2	430,1
Taxtako‘pir	1,9	1,8
To‘rtko‘l	29,6	30,1
Xo‘jayli	228,7	231,6
Chimboy	79,3	79,9
Shumanay	73,1	73,7
Ellikqal‘a	30,5	31,1

Qoraqalpog‘iston Respublikasida 2023- yil 1- aprel holatiga 1 kvadrat kilometr ga o‘rtacha **11,9** kishi to‘g‘ri kelgan. Bu esa o‘tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **0,2** kishiga ortgan (2022- yil 1- aprel holatiga 1 kv.km.ga **11,7** kishi).

Tumanlar bo‘yicha qaraydigan bo‘lsak, aholi zichligini eng yuqori ko‘rsatkichi Nukus shahrida 1 518,4 kishi, Taxiatoş tumanida 430,1 kishi, Xo‘jayli tumanida 231,6 kishi, Amudaryo tumanida 205,1 kishi, Kegeyli tumanida 80,8 kishini tashkil etgan bo‘lsa, eng past ko‘rsatkichlar Mo‘ynoq tumanida 0,9 kishi, Qo‘ng‘irot tumanida 1,8 kishi, Taxtako‘pir tumanida 1,8 kishi, Qorao‘zak tumanida 9,2 kishi, To‘rtko‘l tumanida 30,1 kishini tashkil etgan.

QAYD ETILGAN TUG‘ILISHLAR



Tug‘ilganlarning taqsimlanishi

Yanvar- mart

O‘g‘il bolalar
5 077

Qiz bolalar
4 727



51,8 %

48,2 %

Shahar va tumanlar kesimida tug‘ilganlar soni va koeffitsiyenti

2023-yil yanvar-mart	Tug‘ilganlar soni	koeffitsiyenti
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	9 804	20,1
Nukus sh. tumanlar:	1 666	20,2
Amudaryo	1 092	21,2
Beruniy	1 133	22,8
Bo‘zatov	62	11,5
Qorao‘zak	224	16,8
Kegeyli	322	17,6
Qo‘ng‘irot	668	20,1
Qonliko‘l	262	20,0
Mo‘ynoq	131	15,9
Nukus	324	24,8
Taxiatosh	273	14,5
Taxtako‘pir	141	14,7
To‘rtko‘l	1125	20,3
Xo‘jayli	687	21,9
Chimboy	491	17,3
Shumanay	230	16,2
Ellikqal‘a	973	23,5



2023- yilning yanvar-mart oylarida **9,8** mingta kishi tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti **20,1** promilleni tashkil etdi. (2022- yilning yanvar-mart oylarida **20,1** promilleni tashkil etgan).

Tug'ilishlarning chaqaloqlar soni bo'yicha taqsimlanishi

2023- yil yanvar-mart



2 nafar egizak
238 ta



1 nafar
9 566 ta



● 1 nafar – **97,6 %**
● 2 nafar – **2,4 %**

2023- yilning yanvar - mart oylarida qayd etilgan tug'ilishlarda 1 nafar va egizak tug'ilgan chaqaloqlar soni bo'yicha tahlil etilganda quyidagi ulushga ega bo'lganligi kuzatildi:

Chaqaloqlarning ota-onasi yoshi bo'yicha taqsimlanishi

Otaning yoshi

8,6 %
40 yosh va undan kattalar

80,2 %
25-39 yoshdagilar

11,2 %
25 yoshgacha



Onaning yoshi

2,3 %
40 yosh va undan kattalar


68,6 %
25-39 yoshdagilar

29,1 %
25 yoshgacha



2023- yilning yanvar-mart oylarida tug'ilgan chaqaloqlar otasining yoshi bo'yicha **11,2 %** chaqaloqlar otasining yoshi 25 yoshgacha, **80,2 %** ining otasi 25-39 yoshlarga hamda **8,6 %** chaqaloqlarning otasi 40 yosh va undan katta yoshdagilar hissasiga to'g'ri kelgan. Shuningdek, tug'ilgan chaqaloqlar onasining yoshi bo'yicha **29,1 %** chaqaloqlar onasining yoshi 25 yoshgacha, **68,6 %** ining onasi 25-39 yoshlarga hamda **2,3 %** chaqaloqlarning onasi 40 yosh va undan katta yoshdagilardan iborat bo'lgan.

VAFOT ETGANLAR



Vafot etganlarning taqsimlanishi

Yanvar-mart

Erkaklar
1 279

Ayollar
1 071




54,4 %

45,6 %

Shahar va tumanlar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti

2023- yil yanvar-mart, kishi


	Vafot etganlar	koeffitsiyenti
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	2 350	4,8
<i>Nukus sh. tumanlar:</i>	409	5,0
Amudaryo	204	4,0
Beruniy	186	3,7
Bo‘zatov	7	1,3
Qorao‘zak	105	7,9
Kegeyli	106	5,8
Qo‘ng‘irot	179	5,4
Qonliko‘l	51	3,9
Mo‘ynoq	48	5,8
Nukus	84	6,4
Taxiatosh	58	3,1
Taxtako‘pir	129	13,4
To‘rtko‘l	216	3,9
Xo‘jayli	134	4,3
Chimboy	201	7,1
Shumanay	65	4,6
Ellikqal‘a	168	4,1



2023- yilning yanvar-mart oylarida **2,4** mingta o‘lim qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga o‘lim koeffitsiyenti **4,8** promilleni tashkil etgan. (2022- yilning yanvar-mart oylarida **4,8** promille bo‘lgan).

O'limning asosiy sabablar bo'yicha taqsimlanishi


2023- yil yanvar-mart, kishi



2023- yilning yanvar- mart oylarida qayd etilgan o'lim holatining **44,4 %** i – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **8,4 %** i – o'simtalardan, **12,4 %** i – nafas olish a'zolari kasalliklaridan, **4,9 %** i – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **3,4 %** i – ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, **0,5 %** i – yuqumli va parazitlar kasalliklardan, **26,0 %** i boshqa kasalliklardan vafot etganlar.


O'limning yosh guruhlari bo'yicha taqsimlanishi

2023- yil yanvar-mart




2023- yilning yanvar- mart oylarida vafot etganlar yosh guruhlari bo'yicha taqsimlanganda 20 yoshgacha vafot etganlar **16,0 %** ni, 20-59 yoshlar orasida **26,5 %** ni, 60 va undan katta yoshlilarda esa **57,5 %** ni tashkil etgan.

QAYD ETILGAN NIKOHLAR



Nikohlarning taqsimlanishi

Yanvar- mart



Shahar va tumanlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti


2023- yil yanvar-mart, birlik

	nikohlar	koeffitsiyenti
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	3 647	7,5
<i>Nukus sh.</i>	514	6,2
tumanlar:		
Amudaryo	462	9,0
Beruniy	424	8,5
Bo‘zatov	17	3,2
Qorao‘zak	92	6,9
Kegeyli	131	7,2
Qo‘ng‘irot	249	7,5
Qonliko‘l	77	5,9
Mo‘ynoq	42	5,1
Nukus	114	8,7
Taxiatosh	87	4,6
Taxtako‘pir	77	8,0
To‘rtko‘l	492	8,9
Xo‘jayli	234	7,4
Chimboy	200	7,0
Shumanay	80	5,6
Ellikqal‘a	355	8,6



2023- yilning yanvar-mart oylarida **3,6** mingta nikoh qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga nikoh koeffitsiyenti **7,5** promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilning mos davriga nisbatan **-0,1** promillega kamayganligi kuzatildi (2022- yilning yanvar-mart oylarida **8,6** promille bo‘lgan).

NIKOHDAN AJRALISHLAR



Nikohdan ajralishlarning taqsimlanishi

Yanvar- mart

shahar
354



62,4 %

qishloq
213



37,6 %

Nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti

2023- yil yanvar-mart, birlik


	nikohdan ajralishlar	koeffitsiyenti
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	567	1,2
<i>Nukus sh. tumanlar:</i>	119	1,4
Amudaryo	44	0,9
Beruniy	63	1,3
Bo‘zatov	6	1,1
Qorao‘zak	21	1,6
Kegeyli	20	1,1
Qo‘ng‘irot	49	1,5
Qonliko‘l	17	1,3
Mo‘ynoq	8	1,0
Nukus	15	1,1
Taxiatosh	11	0,6
Taxtako‘pir	19	2,0
To‘rtko‘l	42	0,8
Xo‘jayli	47	1,5
Chimboy	34	1,2
Shumanay	14	1,0
Ellikqal‘a	38	0,9



2023- yilning yanvar-mart oylarida **0,6** mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **1,2** promilleni tashkil etgan. (2022- yilning yanvar-mart oylarida **1,2** promille bo‘lgan).


Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo‘yicha taqsimlanishi

2023- yil yanvar-mart



Qoraqalpog‘iston Respublikasida 2023- yilning yanvar-mart oylarida jami nikohdan ajrashganlarning **24,9 %** i farzandsiz, **39,6 %** i bitta farzand bilan va **35,5 %** i ikki va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Nikohdan ajrashganlar soni va koeffitsiyenti



AHOLI MIGRATSIYASI

(Doimiy yashash maqsadida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar)

2023- yilning yanvar-mart oylarida Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha doimiy yashash maqsadida ko‘chib kelganlar jami soni 2 172 kishini tashkil etdi.


Doimiy yashash maqsadida ko‘chib ketganlar soni jami 4 003 kishini, migratsiya saldosi minus 1 831 kishini tashkil etdi.(2022- yil yilning yanvar-mart oylarida minus 199 kishini tashkil etgan).

Shahar va tumanlar bo‘yicha ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni

(kishi)

	2022 - yil yanvar-mart			2023- yil yanvar-mart		
	Ko‘chib kelganlar	Ko‘chib ketganlar	Migratsiya saldosi	Ko‘chib kelganlar	Ko‘chib ketganlar	Migratsiya saldosi
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	2 439	2 638	-199	2 172	4 003	-1 831
Nukus sh.	921	524	397	616	939	-323
tumanlar:						0
Amudaryo	77	154	-77	73	165	-92
Beruniy	65	73	-8	83	179	-96
Bo‘zatov	30	84	-54	9	49	-40
Qorao‘zak	61	116	-55	52	148	-96
Kegeyli	108	171	-63	123	264	-141
Qo‘ng‘irot	117	154	-37	111	277	-166
Qonliko‘l	95	122	-27	78	130	-52
Mo‘ynoq	62	41	21	47	89	-42
Nukus	178	156	22	202	214	-12
Taxiatosh	120	127	-7	118	196	-78
Taxtako‘pir	31	94	-63	52	150	-98
To‘rtko‘l	90	134	-44	115	143	-28
Xo‘jayli	192	186	6	198	389	-191
Chimboy	108	293	-185	128	361	-233
Shumanay	88	105	-17	88	141	-53
Ellikqal‘a	96	104	-8	79	169	-90

JAMI KO‘CHIB KELGANLAR



Ko‘chib kelganlarning taqsimlanishi

Yanvar-mart

Erkaklar

680

Ayollar

1 492



31,3 %

68,7 %

Ko‘chib kelganlar soni va koeffitsiyenti


2023- yil yanvar-mart, kishi

	Ko‘chib kelganlar	koeffitsiyenti
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	2 172	4,5
Nukus sh. tumanlar:	616	7,5
Amudaryo	73	1,4
Beruniy	83	1,7
Bo‘zatov	9	1,7
Qorao‘zak	52	3,9
Kegeyli	123	6,7
Qo‘ng‘irot	111	3,3
Qonliko‘l	78	5,9
Mo‘ynoq	47	5,7
Nukus	202	15,4
Taxiatosh	118	6,3
Taxtako‘pir	52	5,4
To‘rtko‘l	115	2,1
Xo‘jayli	198	6,3
Chimboy	128	4,5
Shumanay	88	6,2
Ellikqal‘a	79	1,9




2023- yilning yanvar-mart oylarida **2,2** mingta ko‘chib kelganlar qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga ko‘chib kelish koeffitsiyenti **4,5** promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilning mos davriga nisbatan **0,6** promillega kamayganligi kuzatildi (2022- yilning yanvar-mart oylarida **5,1** promille bo‘lgan).

JAMI KO'CHIB KETGANLAR



Ko'chib ketganlarning taqsimlanishi

Yanvar-mart



Ko'chib ketganlar soni va koeffitsiyenti

2023- yil yanvar-mart, kishi

	Ko'chib ketganlar	koeffitsiyenti
Qoraqalpog'iston Respublikasi	4 003	8,2
Nukus sh. tumanlar:	939	11,4
Amudaryo	165	3,2
Beruniy	179	3,6
Bo'zatov	49	9,1
Qorao'zak	148	11,1
Kegeyli	264	14,4
Qo'ng'iro't	277	8,3
Qonliko'l	130	9,9
Mo'ynoq	89	10,8
Nukus	214	16,4
Taxiatosh	196	10,4
Taxtako'pir	150	15,6
To'rtko'l	143	2,6
Xo'jayli	389	12,4
Chimboy	361	12,7
Shumanay	141	9,9
Ellikqal'a	169	4,1



2023- yilning yanvar-mart oylarida **4,0** mingta ko'chib ketganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib ketish koeffitsiyenti **8,2** promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilning mos davriga nisbatan **2,7** promillega ko'payganligi kuzatildi (2022- yilning yanvar-mart oylarida **5,5** promille bo'lgan).

Xorijiy mamlakatlardan doimiy yashash maqsadida ko‘chib kelganlarning davlatlar bo‘yicha taqsimlanishi


2023- yil yanvar-mart



Qoraqalpog‘iston Respublikasiga xorijiy mamlakatlardan ko‘chib kelganlarning asosiy qismi Qozog‘iston Respublikasidan **51** kishi, Rossiya Federatsiyasidan **3** kishi, Tojikiston Respublikasidan **1** kishi, Turkmaniston Respublikasidan **6** kishi va boshqa mamlakatlardan **2** kishi kelgan.

Xorijiy mamlakatlarga doimiy yashash maqsadida ko‘chib ketganlarning davlatlar bo‘yicha taqsimlanishi

2023- yil yanvar-mart



Qoraqalpog‘iston Respublikasidan xorijiy mamlakatlarga ko‘chib ketganlarning asosiy qismi Qozog‘iston Respublikasiga **2 242** kishi, Rossiya Federatsiyasiga **9** kishi, Qirg‘iziston Respublikasiga **2** kishi, Turkmaniston Respublikasiga **2** kishi va boshqa mamlakatlarga **1** kishi ketgan.

**Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha ko‘chib kelganlar
va ko‘chib ketganlar soni**

	Jami ko‘chib kelganlar (kishi)	shundan:		Jami ko‘chib ketganlar (kishi)	shundan:	
		respublikaning boshqa hududlaridan	xorijiy mamlakatlardan		respublikaning boshqa hududlariga	xorijiy mamlakatlarga
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	2 172	2 109	63	4 003	2 241	1 762
Nukus sh.	616	612	4	939	503	436
tumanlar:						
Amudaryo	73	70	3	165	123	42
Beruniy	83	80	3	179	94	85
Bo‘zatov	9	9	0	49	-5	54
Qorao‘zak	52	51	1	148	88	60
Kegeyli	123	119	4	264	202	62
Qo‘ng‘irot	111	101	10	277	118	159
Qonliko‘l	78	77	1	130	104	26
Mo‘ynoq	47	47	0	89	46	43
Nukus	202	193	9	214	143	71
Taxiatosh	118	117	1	196	96	100
Taxtako‘pir	52	40	12	150	46	104
To‘rtko‘l	115	109	6	143	108	35
Xo‘jayli	198	194	4	389	153	236
Chimboy	128	127	1	361	183	178
Shumanay	88	85	3	141	108	33
Ellikqal‘a	79	79	0	169	131	38

Demografik ko'rsatkichlarga izohlar

Doimiy aholi – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Qishloq aholisi – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

Doimiy aholi sonini baholash – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va muayyan hududga ko'chib kelganlar soni qo'shilib, o'lganlar va muayyan hududdan ko'chib ketganlar soni ayriladi.

Tug'ilish – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

O'lim sabablari – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasaliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

Nikoh – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.



Ko‘chib kelganlar soni – ko‘chib kelganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib kelish.

Ko‘chib ketganlar soni – ko‘chib ketganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib ketish.

Aholining migratsion o‘sishi (farqi) – hisobot davrida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni o‘rtasidagi farqning absolyut miqdori.

Demografiya va mehnat statistikasi bo‘limi

Tel: 61 222-76-57